

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Texnika fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Kukov uslubida (Cuckow method) areometrlarni kalibrlash qurilmasini yaratish	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: Innovatsion elementlarga ega Kukov uslubiga asoslangan, gidrostatik tortish qurilmasining prototipini yaratiladi. Qurilmani “O‘zbekiston milliy metrologiya instituti” davlat muassasasida areometrlarni kalibrlash bo‘yicha yuqori aniqlikdagi innovatsion elementlarga ega bo‘lgan ikkinchi darajali etalon sifatida joriy etiladi. Kukov usulining nazariy asoslarini metrologik imkoniyatlari xalqaro talabga uyg‘unlashtiriladi va texnik-metrologik talablar ishlab chiqiladi; areometrlarni kalibrlash uchun mo‘ljallangan qurilmaning konstruktiv-funksional sxemasi, o‘lchash noaniqligini kompensatsiyalash imkonini beruvchi avtomatik korreksiya tizimi, metrologiya kuzatuvchanligini SI nisbatan innovatsion adaptiv sxemasi va innovatsion-texnik talablar ishlab chiqiladi. BIPM ning Calibration and Measurement Capabilities – CMCs bazasiga muvofiq xalqaro metrologik solishtiruvlarga muvofiqlikning xalqaro (CIPM MRA) talab bo‘yicha ilmiy asoslari ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Ishlab chiqilgan areometrlarni kalibrlash qurilmasi va innovatsion kalibrlash uslubiyoti laboratoriya sinovlaridan o‘tkazilib, tajriba-ekspluatatsiya sharoitida aprobatsiya qilinadi. Sinov natijalari “O‘zbekiston milliy metrologiya instituti” DM va uning hududiy filiallarida, shuningdek boshqa metrologik laboratoriyalar faoliyatiga joriy etilib, tijoratlashtiriladi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma‘lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.